

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 264-270 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KOMPANIYALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO AMALIYOT TAJRIBALARI



Abdullayeva Madinabonu Xasanboyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini oshirishning ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganilgan. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning nazariy jihatlarini va ilmiy asoslarini tushuntirishda mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning yondashuvlari tadqiq qilingan. Xorijiy yirik korporatsiyalarning moliyaviy natijalari va moliyaviy ko'rsatkichlarining tendensiyalari tahlil qilingan. Xalqaro amaliyot tajribalarini o'rganish asosida mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga doir ilmiy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, milliy iqtisodiyot, investitsiya, moliya bozori, investitsion strategiya, samaradorlik, moliyaviy instrumentlar, innovatsiya, moliyaviy menejment.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научные и практические аспекты повышения финансовой устойчивости акционерных обществ. Изучены научные работы отечественных и зарубежных экономистов по обеспечению финансовой устойчивости компании. Анализировано финансовые результаты и тенденции финансовых показателей крупных иностранных корпораций. На основе изучения международного практического опыта сформулированы научные рекомендации по обеспечению финансовой устойчивости в акционерных обществах нашей страны.

Ключевые слова: финансовая стабильность, национальная экономика, инвестиции, финансовый рынок, инвестиционная стратегия, эффективность, финансовые инструменты, инновации, финансовый менеджмент.

Abstract This article discusses the scientific and practical aspects of increasing the financial stability of joint-stock companies. The scientific works of domestic and foreign economists on ensuring the financial stability of the company were studied. The financial results and trends in the financial performance of large foreign corporations are analyzed. Based on the study of international practical experience, scientific recommendations have been formulated to ensure financial sustainability in joint-stock companies in our country.

Key words: financial stability, national economy, investments, financial market, investment strategy, efficiency, financial instruments, innovation, financial management.

Kirish

Jahon miqyosida globallashuvning rivojlanishi butun dunyo iqtisodiyotlarining zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimi orqali tartibga solishga bo'lgan talabni oshirmoqda. Shunday ekan, jahon tendensiyalariga mos ravishda rivojlanish va halqaro standartlarga mos bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish bugungi kunda rivojlanib borayotgan har bir mamlakatning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash ularning istiqboldagi moliyaviy holatini belgilash, qo'shimcha investitsion imkoniyatlarini oshirish, biznesni diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda biznes yuritish uchun qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va kafolatlarini mustahkamlash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda uzoq muddatli strategiyalardan foydalanish amaliyotini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturida «Iqtisodiyotni real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarini raqamlashtirish moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida korporativ boshqaruvni optimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP) tizimlarini joriy etilishini inobatga olish» [1] masalasi belgilab qo'yildi. Bu esa o'z navbatida kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda korporativ boshqaruv tizimining samaradorligi, aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni ochiqlik va korxonalar faoliyatini shaffoflik tamoyilida olib borilishini ta'minlash, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoyalash kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi

Aksiyadorlik kompaniyalarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslubiyotiga doir xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan turlicha yondashuv va tariflar keltirib o'tilgan. Ch.Fridman va K.Gudletlarning fikricha, kompaniyalarning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini aniqlash o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, aniq bir ko'rsatkichlarni o'zi moliyaviy barqarorlik holati bo'yicha to'liq tasavvurni shakllantirish imkonini bermaydi. Ayniqsa, so'nggi yillarda yuz berayotgan jaxon iqtisodiy-moliyaviy inqirozlarning kuzatilayotganligi ana shu ko'rsatkichlarni har tomonlama tadqiq etib borishni taqozo etmoqda [2]. J.G.Shinazining fikricha, moliyaviy tizim, agar iqtisodiy resurslar, moliyaviy hatarlar, ularni baholash va boshqarishni samarali taqsimlash amalga oshirilsagina barqaror hisoblanadi. Ushbu ta'rif orqali muallif moliyaviy barqarorlikka erishishning muhim jihati hisoblangan, ya'ni aynan risklarni baholash va ularni boshqarishga e'tibor qaratadi [3].

S.V.Kulikov kompaniya moliyaviy barqarorligini ikki xil yondashuv asosida ko'rib chiqadi. Xususan, birinchi yondashuvga muvofiq bu (moliyaviy barqarorlik) «moliyaviy vositalar umumiy miqdorida o'z kapitalining belgilangan ulushining mavjudligi», ikkinchi yondashuvga muvofiq esa, «korxonaning moliyaviy resurslari holati, to'lov

layoqati va kredit layoqatini saqlab qolishda kapital va foydaning o'sishi uchun taqsimlash va foydalanish samaradorligi» tushuniladi [4]. A.P.Arkipovning fikricha «Kompaniya moliyaviy barqarorlik tushunchasini, bugungi kunda va istiqboldagi bozorning boshqa ishtirokchilari oldida o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin [5].

Professor T.S.Malikovning fikriga ko'ra, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsienti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuv koeffitsienti, qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsienti) va nisbiy ko'rsatkichlar (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsienti, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, o'z kapitalining manyovrlilik koeffitsienti) ifodalaydi [6]. Professor A.U.Burxonovning fikriga ko'ra, moliyaviy barqarorlik foyda olish va qarzlarni to'lash, korxonalar o'z faoliyatini moliyalash imkoniyati va resurslar aylanish tezligining bir maromda rivojlanib borishiga asoslangan korxonalar faoliyatining kompleks ko'rsatkichidir [7]. Professor O.N.Xamdovning ta'kidlashicha, kompaniyalarning moliyaviy barqarorlik monitoringi deyilganda moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlarni muntazam kuzatish, tahlil qilish va prognoz qilish, taktik va strategik qarorlarni qabul qilish, shu bilan birga qabul qilingan qarorlarni samaradorligini baholash tushuniladi [8].

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqot jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlik strategiyasini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy jihatlari o'rganildi, xorijiy kompaniyalar amaliyotida moliyaviy barqarorlik monitoringini tashkil etish va moliyaviy strategiyalarini amaldagi holatini solishtirma tahlili, mavzuga bog'liq ko'plab nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Iqtisodiyot taraqqiy etishi bilan birga davlatlarning o'zaro hamkorlik munosabatlari rivojlanib boradi. Mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari va o'zaro savdo munosabatlari tendensiyalari asosida moliyaviy hisobotlarning turlari va standartlari bo'yicha o'zhashlik hususiyatlarini shakllantiradi. Kompaniyalar moliyaviy barqarorligini oshirishga doir xalqaro amaliyot tajribalarini tahlil qilar ekanmiz, G7 mamlakatlari orasida Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiyotini rivojlanganlik darajasi, yuqori makroiqtisodiy tendensiyalar, biznesni yuritishning korporativ shakllari boshqa mamlakatlarga nisbatan keng tarqalgan bo'lib, ko'plab transmilliy kompaniyalarning bosh ofislari aynan AQShda joylashgan hisoblanadi. Jumladan, bu kabi yirik kompaniyalarga Wal-mart, Amazon.Inc, Apple.Inc, Berkshire Hathway, JP Morgan Chase&Co kabi yirik transmilliy kompaniyalarni misol qilish mumkin. Mazkur ilmiy maqolada xalqaro yirik transmilliy korporatsiyalardan biri hisoblangan JP Morgan Chase&Co ning asosiy moliyaviy faoliyatini tahlil qilib chiqamiz. Korporatsiyaning shtab-kvartirasi Nyu-York shahrida joylashgan bo'lib, Delaver shtatida ro'yxatga olingan Amerika transmilliy investitsiya banki va moliyaviy xizmatlar xolding kompaniyasi hisoblanadi.

2022 yilning yakunlariga ko'ra, JP Morgan Chase&Co AQShdagi bozor kapitalizatsiyasi bo'yicha dunyodagi eng yirik banklardan biri bo'lib, jami aktivlari bo'yicha dunyoda beshinchi bank hisoblanadi ya'ni 3,95 trillion AQSh dollar [9]. Shuningdek, JP Morgan Chase&Co umumiy daromadi bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlarining eng yirik korporatsiyalari Fortune 500 (Global 500 - The largest companies in the world by revenue) ro'yxatida 24-o'rinni egallaydi.

JP Morgan Chase&Co korporatsiyaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari Covid-19 pandemiyasidan keyingi davrlarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligini ta'kidlash mumkin (1-rasm). Xususan, jami sof daromad xajmi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 18,4 foizga oshgan bo'lsa, foizsiz xarajatlar va kredit yo'qotishlari uchun zaxiralar qo'yilgan daromadlar hajmiga nisbatan kamaygan. Buning asosiy sababi sifatida mazkur korporatsiyaning korporativ obligatsiyalar bo'yicha ushbu davrlarga kelib yirik miqdordagi to'lovlarni amalga oshirganligini qayd etish mumkin.



1-rasm. JP Morgan Chase&Co korporatsiyasining moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili (mlrd. AQSh dollar) [10]

JP Morgan Chase&Co korporatsiyasi «Bulge bracket» banki sifatida turli investitsion bank va moliyaviy xizmatlarning asosiy provayderi hisoblanadi. Bu Bank of America, Citygroup va Wells Fargo bilan birga Amerikaning Katta to'rtlik banklaridan biridir. Korporatsiyaning aktivlari xajmi 2021 yilga nisbatan 2 foizga oshib 3743,56 million AQSh dollarni tashkil etgan (1-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kredit yo'qotishlar uchun zaxira 6,4 milliard dollarni tashkil etgan bo'lib, mazkur yo'qotishlari uchun umumiy zaxiraga 3,5 milliard dollarlik sof qo'shimcha va 2,9 milliard dollarlik sof hisobdan chiqarishni aks ettiradi. Bozor ma'lumotlariga ko'ra kompaniya aksiyalari yakuniy qiymati 158,35 mln. dollarni tashkil qilgan va 2020 yilga nisbatan bu ko'rsatkich 24% o'sgan. 2021 yil oxirida oddiy aksiyalar qiymati 2944,1 mln. dollarni tashkil qilgan

bo'lsa, ushbu o'sish kapitalizatsiya xajmini o'rtacha 8,9 foizga o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Kompaniyaning sof daromadi o'tgan yilga nisbatan 6,3 foizga o'sib, 13,4 milliard dollarni yoki har bir aksiya uchun 4,44 dollarni tashkil etdi, bu esa 4,17 dollarlik konsensus bahosidan ancha yuqori ekanligini namoyon etadi. Shu bilan birga, ROE ko'rsatkichi sezilarli darajada 17% ni tashkil etib, daromad xajmi o'tgan yilga nisbatan 8,2 foizga o'sib, 42,5 milliard dollarni tashkil etdi va Uoll-strit tahlilchilarining o'rtacha 41,7 milliard dollarlik bahosidan ham yaxshiroq bo'ldi. 2023 yilda kreditlash hajmining oshishi, shuningdek, sof foiz marjasining 8 baravarga oshishi hisobiga sof foyda xajmi 11,4 foizga oshib, 23,2 milliard dollarni tashkil etdi.

1-jadval

**JP Morgan Chase&Co korporatsiyasi konsolidatsiyalashgan
balans tahlili (mln. AQSh dollari) [11]**

	Ko'rsatkichlar	2021	2022	O'zgarish
1.	Pul resurslari va banklardagi mablag'lar	26,438	27,697	5%
2.	Banklardagi depozitlar	714,39	539,53	(24)
3.	Davlat qimmatli qog'ozlari	261,69	315,59	21
4.	Qarz ko'rinishadigi qimmatli qog'ozlar	206,07	185,36	(10)
5.	Tijorat aktivlari	433,57	453,79	5
6.	Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlar	308,52	205,85	(33)
7.	Muddati tugagunga qadar saqlanadigan qimmatli qog'ozlar	363,7	425,3	17
8.	Investitsion qimmatli qog'ozlar	672,23	631,16	(6)
9.	Kreditlar	1077,71	1135,64	5
10.	Kredit bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira	(16,386)	(19,726)	20
11.	Kreditlar, ssudalar bo'yicha yo'qotishlar uchun zaxiralarni hisobga olgan holda	1061,32	1115,92	5
12.	Hisoblangan foizlar va debitorlik qarzlari	102,57	125,18	22
13.	Asosiy vositalar va uskunalalar	27,07	27,73	2
14.	Gudvil, MSR va boshqa nomoddiy aktivlar	56,69	60,85	7
15.	Boshqa aktivlar	181,49	182,88	1
16.	Jami aktivlar	3743,56	3665,74	(2)%

Trading economics saytining ma'lumotlariga ko'ra, AQSh da korporativ foyda 2022 yilning 2 choragida 9,1 foizga o'sib, o'tgan davrda 4,9 foizga pasayganidan so'ng 2,62 trillion AQSh dollarini tashkil etib, yangi rekord darajaga erishdi. Korporasiyalar investitsiya uchun mavjud bo'lgan ichki mablag'lar, inventarizatsiyani baholash bilan sof pul oqimi 5,8 foizga o'sib, 3,34 trillion dollarni tashkil etdi, sof dividendlar esa 0,2 foizga tushib, 1,47 trillion dollarni tashkil etdi Shu bilan birga, taqsimlanmagan foyda 23,8 foizga oshib, 1,15 trillion dollarni tashkil etdi [12].

Xulosa

2024 yil uchun JPMorgan rahbariyati sof daromadni taxminan 90 milliard dollar va operatsion xarajatlarni taxminan 91 milliard dollar (4,4 foizga o'sish) miqdorida prognoz qilishda davom etmoqda. Shuningdek, aksariyat moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini ijobiylikini saqlab qolish orqali istiqbolli investitsion loyihalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini oshirish rejalashtirilmogda. Kompaniya boshqaruvining prognozlariga ko'ra dunyoda davom etayotgan geosiyosiy keskinliklar, inflyatsiya bosimining saqlanib qolishi oqibatlar o'zaro savdo munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ham korporativ baholash sohasini raqamlashtirishning, sun'iy intellektdan yoki katta hajmli ma'lumotlar ombori bilan ishlashning huquqiy jihatdan yagona standartlari yoki aniq bir cheklovlar mavjud emas. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda raqamlashtirish va sohani rivojlantirishga oid qonun hujjatlari e'lon qilindi hamda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida farmon imzolandi. Mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirishda huquqiy fundamental asos yaratildi, yo'l xaritasi va strategiya ishlab chiqildi, bu esa yaqin yillarda ushbu sohada yirik loyihalar, raqamli texnologiyalar va shunga o'xshash raqamli mahsulotlar ishlab chiqilishiga dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Moliyaviy barqarorlik murakkab va ko'p elementli tizim bo'lib, kompaniya moliyaviy faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish nafaqat aktivlar tarkibini va ularni moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish masalalarini, balki mohiyatan uzoq muddatda iqtisodiy faoliyat barqarorligi mezoni bo'lgan texnik-iqtisodiy, moliyaviy xavfsizlik va rentabellik masalalarini ham ijobiy hal qilishi kerak. Xorijiy amaliyotda tizimli tahlil doirasida kapital tarkibini optimallashtirish masalasi moliyaviy leveraj koeffitsientini hisoblash usuli asosida hal qilinadi. Moliyaviy leveragening ta'siri iqtisodiy rentabellik va kredit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi o'rtasidagi ijobiy og'ishda namoyon bo'ladi, bu odatda xorijiy amaliyotda moliyaviy leverage differentsiali deb ataladi. Agar farq ijobiy bo'lsa, moliyaviy leverage koeffitsientining har qanday o'sishi o'z kapitali rentabelligining yanada oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2. Charles Freedman Clyde Goodlet. Financial Stability: What It Is and Why It Matters. No. 256, November 2007. C.D. Howe Institute Commentary: <https://www.researchgate.net/publication/23799588>

3. Garry J. Schinasi, 2005, Safeguarding financial stability: theory and practice/Garry J. Schinasi – Washington, D.C.: International Monetary Fund. -pp. 94-97
4. Куликов С.В. Методология страховой науки//Вестник НГУЭУ. – 2018. - №1.
5. Архипов А.П. Финансовый менеджмент в страховании М.: Финансы и Статистика; ИНФРА-М, 2014.-320 с.:
6. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi. O'quv qo'llanma –T.: IQTISOD-MOLIYA – 2009, B. 254-257.
7. Burxanov A.U. (2019) Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot Monografiya – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2019. 160 b.
8. Hamdamov O.N. Moliyaviy barqarorlik strategiyasini shakllantirishning xalqaro amaliyot tajribalari//“Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali 2021 yil 5-son.
9. 1Q22 Earnings Supplement (PDF). JPMorgan Chase. March 31, 2023.
10. Annual Report & Proxy (jpmorganchase.com) – ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
11. <https://www.jpmorganchase.com/content/dam/jpmc/jpmorgan-chase-and-co/investor-relations/documents/annualreport-2022.pdf>
12. United States Corporate Profits - 2022 Data - 2023 Forecast - 1950-2021 Historical (tradingeconomics.com)
13. Hamdamov PhD O. IMPROVING FINANCIAL RISK MANAGEMENT METHODOLOGY //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 6. – S. 2.

Copyright © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

